



**FORMATION OF THE PATROL-POST SERVICE INSTITUTE, STAGES OF
DEVELOPMENT AND FUNCTIONAL ROLE IN THE SYSTEM OF INTERNAL
AFFAIRS BODIES**

Sultonov Aziz Abralovich
(Researcher of the Academy of the Ministry of
Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan)

Annotation: This article analyzes the process of formation of the patrol-post service institute, its historical roots and gradual development directions. It also covers the place of the patrol-post service in the system of internal affairs bodies, its functional tasks in law enforcement and its role in ensuring social security. During the study, regulatory legal documents, historical sources and results of practical activities were analyzed. The article also suggests ways for the patrol-post service institute to operate more effectively in the conditions of modern reforms.

Keywords: patrol-post service, internal affairs bodies, law enforcement, public safety, institute, stages of development, functional role, reforms.

Patrul-post xizmati ichki ishlari organlari tizimida jamoat tartibini ta'minlashning eng qadimiy va samarali shakllaridan biri sifatida shakllangan. Dastlabki bosqichlarda mazkur institutning faoliyati huquqbazarliklarning oldini olish, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan oddiy navbatchilik amaliyotiga tayanib kelgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan uning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashib bordi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning markazlashuvi patrul-post xizmatini alohida tuzilma sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Shu tariqa patrul-post xizmati nafaqat huquqbazarliklarga tezkor munosabat bildirish, balki profilaktika va nazorat funksiyalarini ham bajaruvchi muhim bo'g'inga aylandi. Uning rivojlanish jarayonida zamonaviy sharoitlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashning kompleks mexanizmi shakllandi va bugungi kunda patrul-post xizmati ichki ishlari organlari tizimida fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda huquqbazarliklarning oldini olishda strategik o'rinn tutmoqda.

Patrul-post xizmatining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda bir necha davrlarga ajratish mumkin. Birinchi bosqichda (XIX asrning oxiri – XX asrning dastlabki yillari) xizmat asosan jamoat joylarida navbatchilikni tashkil etish va tezkor choralar ko'rish bilan cheklangan bo'lsa, ikkinchi bosqich (XX asrning o'rtalari)da patrul-post bo'linmalarining tashkiliy tuzilmasi mustahkamlanib, ularning vakolatlari huquqiy hujjatlar bilan tartibga solindi. Uchinchi bosqich (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida) esa xizmatni zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash, shuningdek, huquqbazarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik faoliyatni kengaytirish bilan xarakterlanadi. Mustaqillik davridan keyingi bosqichda patrul-post xizmati tubdan isloh qilinib, uning faoliyati xalqchil tamoyillarga asoslangan holda, inson huquq va erkinliklarini ustuvor qadriyat sifatida himoya qilish yo'nalishida rivojlantirildi. Shu tariqa, patrul-post xizmati tarixiy taraqqiyot jarayonida oddiy navbatchilikdan boshlab, bugungi kunda jamiyat xavfsizligi va huquqiy tartibotni ta'minlashda muhim davlat institutiga aylangan.

Patrul-post xizmati ichki ishlari organlari tizimida jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbazarliklarning oldini olish va ularning sodir etilishiga tezkor munosabat bildirish kabi ustuvor vazifalarni bajaruvchi asosiy bo'g'in sifatida maydonga chiqadi. Ushbu xizmatning funksional o'rni, bir tomonidan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bilan bog'liq



bo‘lsa, boshqa tomondan, jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Patrul-post xizmati bevosita aholiga yaqin turuvchi, “birinchi javob” mexanizmi sifatida faoliyat yuritadi, ya’ni u huquqni muhofaza qilish tizimining eng operativ va ko‘rinadigan qismidir. Shu sababli, ichki ishlar organlari tarkibida patrul-post xizmati nafaqat huquqbuzarliklarning oqibatlarini bartaraf etish, balki ularni erta aniqlash, profilaktika choralarini amalga oshirish hamda fuqarolarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Demak, patrul-post xizmati bugungi kunda ichki ishlar organlarining strategik va amaliy faoliyati kesishgan nuqtasida joylashib, tizim samaradorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Patrul-post xizmati huquqni muhofaza qilish tizimida jamoat tartibini ta’minlash, fuqarolarning osoyishta hayotini kafolatlash va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan maxsus institut sifatida tarixan shakllangan. Jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasi insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab dolzarb bo‘lib kelgan. Qadimgi shaharlar tarixidan ma’lumki, aholi tinchligini saqlash uchun tungi qorovullar, shahar devorlari bo‘ylab yuruvchi navbatchilar, bozor va maydonlarda tartibni kuzatuvchi shaxslar tayinlangan. Bu oddiy amaliyotlar keyinchalik davlat tomonidan maxsuslashtirilgan xizmatlarga aylangan va zamonaviy patrul-post tizimining dastlabki ko‘rinishi sifatida qaraladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi huquqni muhofaza qilish organlarining markazlashuvi bilan ajralib turadi. Aynan shu davrda Rossiya imperiyasi hududida, jumladan, Turkiston o‘lkasida ham patrul va navbatchilik bo‘linmalari tashkil etila boshlandi. Ularning asosiy vazifasi jamoat joylarida osoyishtalikni saqlash, huquqbuzarliklarga tezkor munosabat bildirish, jinoyatchilarni qo‘lga olish va mahalliy aholining xavfsizligini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Bu davrdagi xizmatlar asosan harbiylashtirilgan tusga ega bo‘lib, politsiya tizimining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritgan.

XX asrning birinchi yarmi patrul-post xizmatining huquqiy asoslar bilan mustahkamlanishi davri hisoblanadi. 1917-yildan keyin sobiq Ittifoq hududida miliitsiya organlari tashkil topib, patrul-post faoliyati ham ularning tarkibida yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda xizmat faoliyati davlat tomonidan qattiq nazorat qilindi va huquqiy tartibotni ta’minlash siyosiy mazmun kasb etdi. Miliitsiya tizimida patrul-post xizmatiga alohida bo‘linma sifatida e’tibor berilishi ularning tashkiliy asoslarini mustahkamlashga olib keldi.

XX asrning ikkinchi yarmida patrul-post xizmatining texnik imkoniyatlari kengaydi. Avtomobil transporti, aloqa vositalari, portativ radio stansiyalar joriy etilishi xodimlarning tezkorlik darajasini oshirdi. Shu bilan birga, xizmatning profilaktik faoliyati kuchaytirilib, jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, yirik shaharlar va sanoat markazlarida patrul-post xizmati jamoat xavfsizligini saqlashda muhim mexanizmga aylandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ichki ishlar organlari, jumladan, patrul-post xizmati faoliyatida ham tub burilish yuz berdi. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi, xizmat faoliyatini xalqchil va ochiq qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Shu maqsadda, qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, patrul-post xodimlarining huquqiy maqomi, ularning vazifalari hamda majburiyatları aniq belgilandi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni



(1992-yil) va keyingi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari xizmat faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy manbalar bo‘lib xizmat qildi.

2017–2021-yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan keng ko‘lamli huquq-tartibot islohotlari doirasida patrul-post xizmati ham zamonaviy talablarga moslashtirildi. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” doirasida ichki ishlar organlarining aholiga yaqin bo‘lishi, fuqarolar bilan doimiy muloqot olib borishi hamda profilaktika faoliyatini kuchaytirish masalalari alohida e’tiborga olindi. Shuningdek, patrul-post xodimlarini zamonaviy maxsus kiyim-bosh, transport va aloqa vositalari bilan ta’minalash, ularning malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Bugungi kunda patrul-post xizmati ichki ishlar organlari tizimida nafaqat jamoat xavfsizligini ta’minlovchi tuzilma, balki huquqbazarliklarning oldini olish, fuqarolar huquqiy ongini shakllantirish, aholiga huquqiy yordam ko‘rsatishda ham samarali faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiya qilinishi xizmatni yanada tezkor va samarali qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 25 oktyabr — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni bilan soha xodimlari va faxriylariga yo‘llagan tabrigida - “Xavfsiz mahalla” va “Xavfsiz hudud” tamoyillari asosida ichki ishlar organlarining Milliy gvardiya va mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikdagi ishlari qisqa vaqt ichida o‘zining ijobjiy natijasini berayotgani biz uchun katta ahamiyatga ega. Hududiy bo‘lmalarining tezkorligini oshirish va ularning moddiy-texnik ta’mintoni yaxshilash uchun sohaga 2016-2021 yillarda qo‘srimcha 3,5 mingga yaqin yangi transport, 16 mingdan ortiq maxsus va texnik vositalar ajratilganligini ta’kidlagan .

Ma’lumki, jinoyatchilik statistikasini yuritishda xalqaro hamjamiyat tomonidan umume’tirof etilgan ijobjiy tajribasidan kelib chiqib, 100 ming aholi soniga nisbatan hisoblanishi yo‘lga qo‘yilganligini va mamlakatimiz aholi soni 32 mln 120 mingdan 34 mln 860 mingga ko‘payganligini inobatga olib, 2021 yil 6 oyida har 100 ming aholi soniga nisbatan 132 ta jinoyatlar to‘g‘ri kelishini ko‘rishimiz mumkin.

2021 yilning 6 oyi yakuniga ko‘ra respublikamizning 9.251 ta mahallalardan 4.559 tasida (49,3%) biron ta jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmaganligini va o‘z navbatida, jami qayd etilgan 45.630 ta jinoyatlarning 15.881 tasi yoki 34,8 foizi avvalgi yillarda sodir etilib, joriy yilda hisobga qo‘yilganligini hamda 15.434 ta jinoyatlar (jami 45.630 tadan 33,8 %) xodimlarning tashabbusi bilan aniqlanib, jinoyatlar soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 71,4 foizga (9.004 tadan 15.434 taga) yaxshilanganligiga diqqatimizni qaratdik .

2022 yilning 6 oyida respublikada bo‘yicha jami 46 529 ta jinoyat qayd etilgan bo‘lib, bu har 100 ming aholiga nisbatan o‘rtacha 131 tani tashkil etadi. Shuningdek, qayd etilgan jinoyatlarning deyarli yarmi (jami 46.529 tadan 19.099 ta,41%), xodimlarning tashabbusi bilan aniqlangan va bu amaliyot o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 23,7 foizga (15.434 tadan 19.099 taga) yaxshilandi. Umumiy jinoyatlar-ning har uchinchisini (46.529 tadan 15.669 ta,33,7%) firibgarlik va o‘g‘rilik tashkil etgan. Firibgarlik jinoyatlarining 821 tasi ishga va o‘qishga kiritib qo‘yish, 765 tasi uy-joy va kredit olib berish, 643 tasi qarz oldi-berdisi, 401 tasi avtomashina olib berish, 68 tasi plactik kartochka-dagi pullarni naqdashtirib berish maqsadida aldab sodir etilgan. Shuningdek, o‘g‘riliklarning 1.441 tasi xonodon, 1.363 tasi telefon, 388 tasi velosiped, 411 tasi



hayvon o‘g‘riliklarini, 260 tasi kissavurlikni tash-kil etgan. Shuningdek, 3.119 ta mahallada har 10 ming aholi soniga nisbatan sodir etilgan jinoyatlar soni tuman-shahar ko‘rsatkichidan yuqoriligidicha qayd etilib, ular “qizil” toifaga kiritilgan hamda jinoyatlar sodir etilgan yana 1.279 ta mahallalar “sariq” toifaga ajratilganligini ko‘rishi-miz mumkin .

Zero, tahlillarga asosan, eng ko‘p jinoyatlar yilning avgust, oktyabr va noyabr oylarida sodir etilgan. Eng kam jinoyatlar esa yanvar va iyun oylarida sodir etilgan. Avgust, oktyabr va noyabr oylarida ko‘cha va jamoat joylaridagi jinoyatlarning nisbatan oshib ketishi, ushbu davrdagi ayrim mavsumiy jarayonlar bilan bog‘liq, masalan, avgust oyida viloyatlardan Toshkent shahriga oliv o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish uchun minglab abituriyentlarning kelishi, oktyabr va noyabr oylarida esa viloyatlardan o‘zлari yetishtirgan dehqонchilik mahsulotlarini sotish maqsadida keladigan fuqarolarning keskin ko‘payishi ushbu davrda ko‘cha va jamoat joylaridagi jinoyatlarning o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p jinoyatlar sodir etilgan kunlar haftaning o‘rtasida – payshanba va juma kunlariga to‘g‘ri kelsa, jinoyatlar nisbatan kam sodir etiladigan kun – dushanba ekani ma’lum bo‘ldi; jinoyatlarni kunning ma’lum vaqt bo‘yicha tahlil qilinganda ular sutkaning eng ko‘p jinoyat sodir etiladigan vaqt soat 18-00 dan 23-59 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘iga to‘g‘ri kelmoqda. Eng kam jinoyatlar sodir etilgan vaqt esa soat 04-00 dan 06-59 gacha bo‘lgan davrga to‘g‘ri kelgan. Soat 18-00 dan 03-00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida jinoyatlarning keskin ko‘payib ketishiga asosiy sabablardan biri bu aholining ishdan qaytishi soat 18-00 dan 21-00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida talonchilik jinoyatlari ko‘p sodir etilgan, kafe, bar va restoranlarning asosiy ish vaqt soat 21-00 dan 00-00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida bezorilik jinoyatlari ko‘p sodir etilgan, aholining uyquga ketishi soat 00-00 dan 03-00 gacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida qarovsiz qoldirilgan transport vositalaridan o‘g‘rilik jinoyatlari ko‘p sodir etilgan ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, patrul naryadlarini joylashtirish bo‘yicha loyihalashtirish jarayonida jinoyatlar dinamikasini vaqt bo‘yicha tahlil natijalarining inobatga olinishi ko‘cha va jamoat joylarida patrul-post xizmatini samarali tashkil etish asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, IIOning jamoat tartibini saqlashda ishtirot etuvchi turli xizmatlari kuchlarini joylashtirishda ularning bevosita ish joyi va vaqtin inobatga olinadi. Ayni vaqtida turli xizmatlarning naryadlarini qo‘shishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati naryadlarini joylashtirish haqidagi qaror ifodalanadigan asosiy hujjat jamoat tartibini saqlashda kuch va vositalardan kompleks foydalanish rejasi (yagona dislokatsiya)dir. U IIO rahbarining sutkalik naryadlarni joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishi uchun zarur dastlabki eng muhim ma’lumotlarni aks ettiradi. Uni tayyorlashda jamoat tartibini saqlash apparatlari, PPX bo‘linmalarining komandirlari, yo‘l harakati xavfsizligi, zaruratdan kelib chiqqan holda boshqa tegishli mansabdor shaxslar ham ishtirot etadilar. Yagona dislokatsiya rejasi ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi. Boshqaruv qarorining amalga oshirilishi ko‘p jihatdan ijrochilarining to‘g‘ri tanlanishi va joylashtirilishiga bog‘liq. Shu bois IIOning rahbarlari va saf bo‘linmalari komandirlari tomonidan shaxsiy tarkibning oldiga qo‘yilgan vazifalarni tez va ongli ravishda tushunish hamda bajara olishlari uchun ularni xizmatga tayyorlash va yo‘l yo‘riq berish muhim omildir. PPX naryadlarini xizmatga tayyorlash va ularga yo‘l-yo‘riq berish. PPX bo‘linmasi naryadlarining faoliyatini sifatlari tashkil etishda qo‘yilgan vazifalarni tushunishi, ularni eng maqbul tarzda bajarish yo‘llarini anglab yetishiga erishish talab etiladi.



Ta'kidlash kerakki, PPX bo'linmasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga xizmat naryadlariga talab darajasida yo'riqnomalar berish orqali erishish mumkin. PPXning samaradorligi ana shu yo'riqnomaning tashkiliy va metodik darajasiga bog'liq. Xizmatga tushadigan naryadlarga odatda IIO FMB rahbari (saf bo'linmasi komandiri) yoxud uning o'rribosari xizmatning maxsus jihozlangan sinfida yo'l-yo'riq beradi. Yo'riqnomalar vaqtida beriladigan vazifalarini hal etish, xaritalar, chizmalar, maketlar va shu kabilardan foydalaniib nostandard vaziyatlarni o'rganish maqsadga muvofiq. Bu hol PPX naryadlari xizmat funksiyalarini bajarish uchun bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishgina emas, balki mustahkamlashga ham imkon beradi.

Yuridik adabiyotlar, ilmiy-tadqiqotlar va huquqni qo'llash amaliyotining tahviliga asoslanib, tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati faoliyati boshqarishda foydalanimadigan axborot tizimini tashkil etuvchi ma'lumotlarni quyidagi besh turga bo'lib o'rganish mumkin: a) konseptual muhit yo'nalişlarini ifodalovchi axborot. Bu axborot: birinchidan, PPX bo'linmalarining maqsad va vazifalarini ularni boshqarish obyekti sifatida belgilaydi; ikkinchidan, ularning faoliyatini muayyan doira bilan cheklaydi, ushbu faoliyat haqidagi nizomlarni belgilaydi. Ushbu axborotlarga davlat hokimiyati organlarining qonunlari va boshqa hal qiluv qarorlari kiradi; b) xizmat ko'rsatish hududiga oid jo'g'rofiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlar haqidagi axborot. Ushbu axborot xizmat ko'rsatish hududining o'lchami holati va rivojlanishi hamda aholining soni, yosh bo'yicha tarkibi, ish bilan bandligi, migratsiya jarayonlari, muqaddam sudlangan va boshqa shu kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi; v) tashqi ta'sir obyektlarining ahvolini ifodalovchi axborot – huquqbazarliklar, ularning sabablari va sodir etilishiga imkon bergen shart-sharoitlar, belgilangan ijtimoiy tartib doirasidan chiquvchi hodisalar, g'ayriqonuniy qilmishlarni sodir etgan, jazo o'tayotgan shaxslar haqidagi va boshqa shu kabi ma'lumotlar; g) IIO tizimining ahvoli va faoliyat natijalarini aks ettiruvchi axborot. Axborotning bu turi tizimning ichki tashkiliy jarayonini va tashqi boshqaruv funksiyalarini bajarish bilan bog'liq faoliyatining samaradorligini belgilab beradi; d) huquqiy tartibni saqlashda IIO bilan hamkorlik qiluvchi tashqi muhit obyektlarining ahvoli va faoliyat natijalarini ifodalovchi axborot. Axborotning ushbu turi IIO tizimiga kirmaydigan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va huquqiy tartibni saqlashda ishtiroy etadigan jamoatchilik tuzilmalarining faoliyatini aks ettiradi. U ma'muriy hududda jamoat tartibini saqlashning ahvoli va faoliyat natijalarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni ham qamrab oladi deya berilgan ta'riflariga qo'shilgan holda aytish mumkinki, bugungi kunda tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati faoliyati boshqarishda foydalanimadigan axborot tizimini zamon talablarasi asosida takomillashtirish doirasida ularni IIO elektron axborot tizimlarining ma'lumotlar bazalariga ulangan xizmat planshetlari bilan ta'minlanganligi bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligini ijobiy tajriba sifatida e'tirof etish mumkin.

Ushbu tajribaning joriy etilganligi tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati faoliyatida jinoyatlar, bedarak yo'qolganlar, o'g'irlangan mulklar va huquqni muhofaza qilish organlarini qiziqtirgan boshqa masalalarga aloqador ma'lumotlarni tezda yuborish yoki olish orqali boshqaruvni zarur, ayni paytda tezkor axborot bilan ta'minlash imkoniyatini bermoqda. Kuch va vositalarning manyovrini amalga oshirish. Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash faoliyatiga vakolatli davlat organlari va muassasalarini bilan birga qonun hujjatlariga muvofiq, jamoatchilik tuzilmalari va fuqarolarni jalb etilishi mumkin. Bu borada bevosita tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati tomonidan IIO FMB boshqa bo'linmalari, davlat organlari va muassasalarini, jamoatchilik tuzilmalari bilan hamkorlikda amalga



oshiriladigan vazifalar qo'shma qarorlar, rejalar, ko'rsatmalar va yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangandek, PPX saf bo'linma-lari zimmasidagi vazifalarning tahlilidan kelib chiqqan holda o'z aksini topadi:

- Kriminogen vaziyat bo'yicha o'zaro axborot almashish, sodir etilgan jinoyat va huquqbazarliklar to'g'risida naryadlarni xabardor qilish;
- PPX bo'linmalari shaxsiy tarkibi bilan o'tkazilayotgan yo'riqnomada mashg'ulotlarda taktik harakatlar, ish usuli va uslublarini o'rgatish, ushbu jarayonga tajribali xodimlarni jalb etish;
- Xizmat vazifalarni bajarishda o'zaro yordam ko'rsatish, tezkor-profilaktik tadbirlarni hamkorlikda o'tkazish va tajriba almashish;
- IIOning maxsus rejalarida nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ishtirok etish; terrorchilik harakatlariga chek qo'yish, garovga olinganlarni ozod qilish, guruhiy tartibbazarlik va ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, qo'riqlovga olingan, xususan o'ta muhim va toifalangan obyektlarga, o'ta muhim yuklarga, transport vositalariga guruh bo'lib qilingan hujumni yoki qurolli hujumni daf etish bo'yicha IIOning bo'linmalari bilan birgalikda maxsustaktik, shtab-qo'mondonlik va boshqa mashg'ulotlar hamda mashqlarni o'tkazish hamda xizmat o'tashini nazorat qilishdan iboratdir.

Nazorat qilishning maqsadi – nafaqat IIO xodimlarining maqsadga muvofiq ishlashini ta'minlash hamda aniqlangan kamchiliklarni o'rganish, qolaversa mavjud kamchiliklarning sabablari va ularga imkon bergen shart-sharoitlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko'rishdan ham iboratdir.

Qolaversa, bu borada tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchi Dina Bajramspanichning fikricha, yaxshi tashkil etilgan nazorat tizimi IIO xodimlarining orasida korrupsiya va noqonuniy xatti-harakatlarni aniqlash hamda oldini olishga ham yordam berishi mumkin deya berilgan ta'rifiga qo'shilgan holda aytish mumkinki bevosita tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati saf bo'linmalari tomonidan xizmatni tashkil etish va o'tash ustidan olib boriladigan nazorat xususida so'z borganda aytish joizki, mazkur jarayon muntazam tekshiruvlarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilishi va tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati naryadlarining xizmat o'tashini tekshirish o'rnatilgan tartibda oshkora va xufiyona ravishda alohida ro'yxat asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati naryadlarining xizmat o'tashini nazorat qilish maqsadida joriy qilingan bodikameralarni ijobjiy tajriba sifatida baholash mumkin.

Mazkur nazorat shaklining joriy qilinishi tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati naryadlarining kunlik faoliyatlari davomida ularning o'rnatilgan tartibda fuqarolar bilan muloqotlari, murojaatlarni qonuniy yo'llar orqali hal qilishga doir harakatlari hamda korrupsiya yo'l qo'ymaslik imkonini bermoqda.



Shu bilan birga, mazkur nazorat shakli PPX naryadlarining xizmat o'tashini nazorat qilish bilan bir qatorda ularni turli muammoli holat (tuhmat, shantaj)larda himoya qilish imkoniyatiga ega.

Tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati saf bo'linmalari faoliyati ustidan tekshiruvni olib borish tartibi, muddatlari va uni amalga oshiruvchi subyektlar normativ-huquqiy hujjalarda aniq belgilangan.

Unga ko'ra, vakolati subyektlar tomonidan tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati saf bo'linmalari faoliyatini tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim:

- Kuch va vositalar joylashuvining qabul qilingan qarorga muvofiqligiga;
- Naryadlarning patrullik yo'naliqidagi vaziyatni, yuklatilgan vazifalari, huquq va majburiyatlari hamda boshqa zarur ma'lumotlarni bilishlariga;
- Naryadlarning belgilangan tartibdagi epikirovka bilan talab darajasida jihozlanganiga;
- Xizmat o'talishining sifati, shu jumladan jinoyat va ma'muriy huquqbazarliklarning oldini olish, sodir etilganlarini fosh etishda faolligiga;
- IIOning boshqa bo'linmalari, davlat organlari va jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkillashtirishiga;
- Xizmat intizomi va qonuniylikka amal qilinishiga; patrullik yo'nalihsida jinoyat va ma'muriy huquqbazarliklar sodir etilishi darjasida hamda ular bo'yicha tegishli choralarining ko'riliishi holatiga;
- Xizmat hujjalaringin to'g'ri yuritilishiga va boshqalar.

Shuningdek, tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati saf bo'linmalarini tekshiruv maqsadiga qarab, tekshiruvchilar tomonidan boshqa holatlarga ham e'tibor qaratilishi mumkin. Hisob ishi va baholash. Xizmat hududida huquq-tartibotni ta'minlashning haqiqiy axvolini, kuch va vositalarning joylashuvi ko'cha va boshqa jamoat jaylaridagi kriminogen vaziyatga muvofiqligini aniqlash, shuningdek xodimlarning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish borasida shaxsiy javobgarligini ta'minlash maqsadida PPX saf bo'linmalari faoliyati natijalari hisobga olinadi va baholanadi.

Hisob ishi har qanday nazoratning asosini tashkil etadi, nazorat jarayonida amalga oshiriladi va boshqaruv siklida nazoratning yakunlovchi funksiyasi hisoblanadi. Hisob ishi deganda, tizimning ishslash natijalari va ijrochilar tomonidan o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarish natijalari to'g'risida, odatda, miqdoriy ko'rsatkichlarda ifodalangan ma'lumotni qabul qilish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish tushuniladi degan fikriga qo'shilgan holda mumkinki, kriminogen vaziyatni ifodalovchi omillar va shart-sharoitlarni tahlil qilish natijalari PPX tashkilotchilariga yuz berayotgan hodisalarni yaxshi tushunish, jamoat tartibi va jinoyatchilikning holatidagi tamoyil (tendensiya)larni aniqlash, asoslangan boshqa qarorlar qabul qilish imkonini beradi, deb xulosaga kelish mumkin.



Ta'kidlash joizki, tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati saf bo'linmalari faoliyatiga oid quyidagilar hisobga olinishi va tahlil qilinishi lozim:

- PPX naryadlarining patrullik yo'naliishlari (postlari)da sodir etilgan jinoyatlar;
- PPX naryadlari tomonidan aniqlangan (fosh etilgan) jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklar;
- Ushlangan qidiruvdagi (tergov organlari va suddan yashirinib yurgan) shaxslar;
- Xodimlar tomonidan xizmat intizomi va qonuniylikka rioxha qilinishining ahvoli haqidagi ma'lumotlar;
- Jismoniy va yuridik shaxslarning ko'chalar va jamoat joylarida huquq-tartibotni ta'minlash masalalari bo'yicha murojaatlari hisoblanadi.

PPX saf bo'linmalari faoliyatida hisob ishi, xususan xodimlar ish natijalarini qayd etishni to'g'ri tashkil qilish, shaxsiy tarkibda xizmat hududida huquq-tartibotning holati uchun javobgarlikni tarbiyalashga, xizmat o'tash joylarida jamoat tartibini saqlashning holati haqida to'g'ri xulosalar chiqarishga, xodimlarning kasbiy xislatlarini chuqur o'rganish asosida ularni oqilona joylashtirishga imkon beradi. Naryadlar ishining natijalarini hisobga olish ularning xizmat faoliyatini kengroq va xolisona baholash imkonini beradi hamda ish samaradorligiga bevosita ta'sir etadi. Mehnat natijalarini baholash – bu ish samaradorligini aniqlashga qaratilgan boshqarish funksiyalaridan biridir degan fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, bevosita tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati xodimlari tomonidan amalga oshirilgan xizmat vazifasini natijasini doimiy baholab, yaxshi ishlagan xodimni rag'batlantirib, yomon ishlagan xodimni o'rgatib, tushuntirib, ogohlantirib ta'sir chorasini ko'rib borilsa tegishli ish samaradorligiga erishish imkonini beradi deb aytsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Baholash, tuman (shahar) ichki ishlar organlarida patrul-post xizmati saf bo'linmalarini boshqarishning o'ziga xos tarkibiy qismi bo'lib, ma'muriy hududda xizmat faoliyatining sifati va samaradorligini muntazam ta'minlash, ularning kasbiy mahoratini yuksaltirib borish kabi omillar sohada baholashga doir ishlarni olib borishni taqozo etadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rish mumkinki, jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan saf bo'linmalarining fuqarolarga turli darajada yordamlar ko'rsatishi, aholi bilan huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish orqali ularning huquqiy madaniyatini oshirish va shu kabi boshqa faoliyatlarini baholashda ular xizmati tashkil qilingan hududda turli xil ko'rinishdagi yoki ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatidan foydalangan holda so'rovlar o'tkazish orqali jamoatchilik fikrini olish tartibini aniq belgilash, shu bilan birga, ushbu ijobiy tajribani butun respublika miqyosida keng joriy qilish maqsadga muvofiqli.

References:

1. Administrative activity of the police: Textbook / edited by Yu.N. Demidova.–M.,2014.–P.527.[238-p.]//[Electronic source].–URL: <https://rucont.ru/efd/358975> (Accessed:05.06.2022).



2. Stages of formation and development of the system of internal affairs bodies in Uzbekistan. ResearchGate. URL: https://www.researchgate.net/publication/378452106_O%27zbekistonda_ichki_ishlar_organlari_tizimining_shakllanishi_va_rivojlanishi_pyullari
3. Activities of the internal affairs bodies in Uzbekistan. NamDU. URL: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/05/28/NamDU-ARM-2076-Uzbekistonda_ichki_ishlar_organlari_faoliyati.pdf
4. Baigazhakov S.V. Organization of the service of the police and podrazdeleniy politsii po okhrane obshchestvennogo ryadka i obespecheniyu obshchestvennoy bezopasnosti [Electronic resource]: Uchebnik / Baigazhakov S.V., Betskov A.V., Gordienko V.V. - Electronic. text data. - Moscow: YUNITI-DANA, 2015. - 463 c. // [Electronic source]. - URL: <https://www.iprbookshop.ru/74899.html?replaceme nt=1> (Access time: 14.06.2022).
5. Resolution of the Cabinet of Ministers No. 333 dated June 15, 2022 and other Presidential Decrees. LexUZ. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6067742>
6. Some aspects of improving the activities of internal affairs bodies in maintaining public order and ensuring security. Oriens. URL: https://www.oriens.uz/media/journalarticles/83_Ibragimov_Sherzod_Shokirovich_570-578.pdf
7. The importance and relevance of post-patrol service in ensuring public security. Cyberleninka. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/jamoat-xavfsizligini-ta-miyinda-post-patrol-xizmatining-ahamiyati-va-dolzarbligi>
8. Official information of the President of the Republic of Uzbekistan. Old.gov.uz. URL: <https://old.gov.uz/oz/news/view/32989>